



SAMARQAND VILOYATI NARPAY TUMANI HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 4 - may

99-7-98-Q/23

Narpay tumani hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2023-yil 28-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash haqida”gi 125-7-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining ijobiy tajribasini e’tiborga olgan holda uning faoliyati samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari, shuningdek, harbiy pensionerlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini kuchaytirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2023-yil 28-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash haqida”gi 125-7-0-Q/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining tuman hududiy bo‘linmasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar Jamoatchilik kengashi tuman hududiy bo‘linmasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

mudofaa va harbiy sohada olib borilayotgan islohotlar, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bilan bog‘liq eng dolzarb

masalalarga oid jamoatchilik hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan bildirilgan takliflarni, fikr-mulohazalarni har tomonlama tahlil qilib borish, ijtimoiy so‘rovnomalarni, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish;

davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash uchun Mudofaa bo‘limlarini fuqarolar bilan bog‘lab turuvchi “ko‘prik” vazifasini bajarish;

harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish, uy- joy, tibbiy hamda boshqa ta’midot turlari bilan ta’minlash, xizmat o‘tash shart-sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tegishli dasturlarning bajarilishini kompleks tahlil qilishda ishtirok etish, ushbu dasturlarning amalga oshirilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

harbiy xizmatdan rezerv (zaxira)ga bo‘shatilgan fuqarolarning ijtimoiy va professional moslashuvi hamda bandligi bilan bog‘liq masalalarni hal etishda bevosita ishtirok etish;

mudofaa va harbiy qurilish, shu jumladan, Mudofaa vazirligi faoliyatiga oid normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihibalarini (davlat sirlariga oid, foydalanish doirasi cheklangan hujjatlar va ma’lumotlar bundan mustasno) ishlab chiqish, ularning jamoatchilik va ekspert-mutaxassislar muhokamasidan o‘tkazilishini tashkil etishda Mudofaa bo‘limlariga yaqindan yordam ko‘rsatish;

fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqirushi rezervi xizmatiga olish tadbiralarini tashkil etish, shuningdek, harbiy qism (muassasa)larda sog‘lom ma’naviy-ruhiy hamda yuksak axloqiy va madaniy muhit, qonuniylik, huquq-targ‘ibot, yuksak axloq va madaniyat saqlanishini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar tayyorlash va Mudofaa bo‘limlariga kiritish;

yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasi, Ona Vatanga sadoqat, uning taqdiri va ravnaqi uchun daxldorlik hissini kuchaytirish, ommaviy madaniyat, axborot-psixologik xurujlarga qarshi milliy mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda davlat va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla institutlari, ta’lim tashkilotlarining yoshlarni vatanparvarlik, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘z fuqarolik burchi va majburiyatlarini vijdoran bajaradigan O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga qodir barkamol shaxs etib tarbiyalash borasidagi aniq maqsadli ishlarni muvofiqlashtirib borishda ishtirok etish;

jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan birgalikda chaqiruvga qadar yoshlar va harbiy xizmatchilarning tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy

tayyorgarligini tashkil etish;

yoshlarda va harbiy xizmatchilarning milliy g‘ururni mustahkamlash, ularda faol hayotiy pozitsiyani, Vatan mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsiy mas’uliyat hissini mustahkamlash;

hududiy bo‘linmalarining faoliyatini tahlil qilgan holda har bir a’zoning ish samaradorligini baholab, kelgusida ularni faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

fan, madaniyat va san’at namoyandalari hamda Mudofaa bo‘limi faxriylari ishlari bo‘yicha kengashlarni jalg etgan holda o‘quv-tarbiyaviy, targ‘ibot-tashviqot, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy-amaliy tadbirlarni o‘tkazishda harbiy qismlarga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakat xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va chegaralar daxlsizligini ta’minlash masalalariga doir materiallarni e’lon qilish orqali samarali tushuntirish va targ‘ibot ishlarini tizimli asosda amalga oshirish.

5. Belgilab qo‘yilsinki;

hududiy bo‘linmaning tashkiliy-texnik ta’minoti tuman hokimligi tomonidan amalga oshiriladi;

jamoatchilik kengashi o‘z hududiy bo‘linmasiga yuklangan vazifa va majburiyatlarning bajarilishini muvofiqlashtirib boradi hamda ularning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, shuningdek, Narpay tumani mudofaa bo‘limining fuqarolik jamiyati institatlari bilan yaqin va samarali hamkorlik qilishiga ko‘maklashadi;

jamoatchilik kengashining tuman hududiy bo‘linmasi tuman hokimi oldida hisobdor bo‘ladi.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin qizlar bo‘limi (M.Ochilova) Jamoatchilik kengashi hududiy bo‘linmasining qolgan a’zolari bilan hamkorlikda bir oy muddatda va keyinchalik har yili 15-yanvarga qadar amalga oshiriladigan tadbirlarning yillik dasturini tasdiqlasin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari (I.Hakimov), tuman mudofaa ishlari bo‘limi (I.Qodirov):

Jamoatchilik kengashi tuman hududiy bo‘linmasiga samarali faoliyat yuritishlari uchun hamda ularning zimmasiga yuklangan vazifalarni hal etishda har tomonlama ko‘maklashsin;

belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda Jamoatchilik kengashi tuman hududiy

bo‘linmasini tegishli korxona va tashkilotlar, harbiy qismlar o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlasin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin qizlar bo‘limi (M.Ochilova) bir oy muddatda Jamoatchilik kengashi tuman hududiy bo‘linmasining har bir a’zosi tomonidan bajariladigan aniq vazifalarni belgilasin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Ochilova zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.b



Sh.Raxmanov

Narpay tuman hokimining
2023 yil 4 maydagi
99-7-98-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining
tuman hududiy bo‘linmasi**

TARKIBI

1.	Ochilova Marxabo Asrarovna	-	Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, <i>hududiy bo‘linma raisi</i>
2.	Xidirova Yaxshigul	-	Yozuvchilar uyushmasi tuman bo‘limi raisi, <i>hududiy bo‘linma raisi o‘rinbosari</i>
3.	Qarshiyev Otamurod	-	Tuman yoshlar siyosati va sport bo‘limi boshlig‘i, <i>hududiy bo‘linma raisi o‘rinbosari</i> .
4.	Ashurov Go‘libjon	-	Tuman Maktabgacha va mактаб та’лими bo‘limi boshlig‘i.
5.	Iskandarov Feruz	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
6.	Qilichev Jasur	-	Tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i
7.	Gadayev Xurshid	-	Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
8.	Parmonov Sherzod	-	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
9.	Sharipov Usmon	-	Xalq deputatlari tuman kengashi deputati
10.	Jumayev Muxammadi		Kasaba uyushmasi tuman kengashi raisi
11.	Lavozimiga ko‘ra	-	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi rahbari
12.	Mamayusupov Shokir	-	“Mahalla” xayriya jamoat fondi tuman bo‘limi raisi
13.	Samadov Shuxrat	-	“Nuroniy” jamg‘armasi tuman bo‘limi boshlig‘i

Izoh: Tuman Mudofaa bo‘limi huzuridagi Jamoatchilik kengashining tuman hududiy bo‘linmasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda ularning tarkibiga ushbu lavozimiga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarini bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.